



# TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSİYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI



FAN:

IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA

MAVZU  
**03**

Qishloq xo'jalik  
sug'orish rejimi

ekinlarining



Isayev Sabirjan  
Xusanbayevich



Irrigatsiya va melioratsiya  
kafedrasи professori, q.x.f.d.



## “Qishloq xo‘jalik ekinlarining sug‘orish rejimi” mavzusidagi ma’ruza mashgulotining texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	O‘ituvchi	Talabalar
I. Kirish bosqichi (10 daqiqa).	<p>1.1. Mavzuning nomi, maqsadi, rejalashtirilgan o‘quv mashg‘ulot natijalari va uni o‘tkazish rejasi bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2. Mashg‘ulot ma’ruza, tushuntirish va namoyish shaklida o‘tkazilishini va baholash mezonlarini ma’lum qiladi</p> <p>1.3 Fanni o‘rganish uchun adabiyotlar ruyxati bilan tanishtiradi.</p>	Tinglaydilar, yozib oladilar
II. Asosiy bosqich (55 daqiqa).	<p>2.1. Mavzu bo‘yicha ma’ruza va uning rejasi, asosiy tushunchalar bilan tanishtiradi.</p> <p>2.2. Ma’ruzani yorituvchi slaydlarni Power pointda namoyish va sharhlash bilan mavzu bo‘yicha asosiy nazariy bilimlarni bayon qiladi.</p> <p>2.3.Jalb qiluvchi savollar beradi; mavzuning har bir qismi bo‘yicha xulosalar qiladi; eng asosiy tushunchalarga e’tibor qaratadi.</p>	Tinglaydilar, yozib boradilar, savollarga javob beradilar
III. Yakuniy bosqich (15 daqiqa).	<p>3.1. Mavzuni umumlashtiradi, umumiylar xulosalar qiladi, yakun yasaydi, savollarga javob beradi.</p> <p>3.2.Talabalarga mavzu bo‘yicha nazorat savollarini e’lon qiladi.</p>	Tinglaydilar, savol beradilar, savollarga javob beradilar va uyga vazifani yozib oladilar.

# MA'RUZANING REJASI

1. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining suv iste’moli
2. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining sug‘orish rejimi
3. Tuproqning nam sig‘imi.
4. Sug‘orish va mavsumiy sug‘orish meyorlari

## **Asosiy adabiyotlar ro‘yxati**

1. Xamidov M.X., Shukurlayev X.I., Mamataliyev A.B. “Qishloq xo‘jaligi gidrotexnika melioratsiyasi”. Toshkent. Sharq. 2008. -408 bet.
2. Xamidov M.X., Shukurlayev X.I., Lapasov X.O. “Qishloq xo‘jalik gidrotexnik melioratsiyasi” fanidan amaliy mashg‘ulotlarni bajarish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2014. -233 bet.
3. Raximbayev F.M., Xamidov M.X. “Qishloq xo‘jaligi melioratsiyasi”. Tashkent. Mehnat. 1996. - 328 bet.
4. Kostyakov A.N. Osnovi melioratsiya, M.: Selxozgiz, 1960 g.-604 str.
5. Markov YE.S. Selskoxozyaystvenniye gidrotexnicheskiye melioratsii, M.: Kolos, 1981 g. - 376 str.

## **Qo‘sishimcha adabiyotlar ro‘yxati**

1. Yerxov N.S., Ilin N.I., Misenev V.S. Melioratsiya zemel, - M.: Agropromizdat, 1991. - 319 str.
2. Irrigatsiya Uzbekistana. I-IV tomi.

## **Internet materiallari**

1. <http://tiiame.uz/uz/page/ilmiy-jurnallar>, (Irrigatsiya va melioratsiya jurnali).
2. [http://qxjurnal.uz/load/jurnal\\_2017/agro\\_ilm\\_2017](http://qxjurnal.uz/load/jurnal_2017/agro_ilm_2017), (Agro ilm jurnali).
3. [https://elibrary.ru/title\\_about.asp?id=54940](https://elibrary.ru/title_about.asp?id=54940), (Jurnal Voprosi melioratsiya)



## **O'ZBEKISTON PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV BMT BOSH ASSAMBLEYASINING 76-SESSIYASIDA MUHIM TASHABBUSLARNI ILGARI SURDI.**

**BUGUN INSONIYAT O'Z TARAQQIYOT YO'LNING TUB BURILISH DAVRINI BOSHIDAN  
KECHIRMOQDA, XALQARO MUNOSABATLARNING TABIATI KESKIN O'ZGARMOQDA.**

**TINCHLIK, XAVFSIZLIK VA BARQAROR TARAQQIYOTGA TRANSMILLIY TAHDIDLAR  
TOBORA KUCHAYMOQDA, IQLIM JADAL O'ZGARMOQDA, OMMAVIY MIGRATSIIYA OQIMLARI  
KO'PAYMOQDA, AN'ANAVIY QADRIYATLAR ZAVOL TOPMOQDA.**

**«OZBEKISTON IQLIM O'ZGARISHLARIGA QARSHI KURASH, ATROF-MUHIT VA BIO XILMA-XILLIKNI  
MUHOFAZA QILISH MASALARIGA JIDDIY E'TIBOR QARATIB KELMOQDA. BU NAFAQAT BUGUNGI, BALKI  
KELAJAK AVLODLAR OLDIDAGI EZGU INSONIY BURCHIMIZDIR.**

# Qishloq xo'jaligi ekinlarining suv iste'moli


**Suv iste'moli** (evapotranspiratsiya, umumiy bug'lanish) – rejalarashtirilayotgan hosilni olish uchun qishloq xo'jalik ekini iste'mol qiladigan suv miqdoridir.

*Qishloq xo'jalik ekini yetishtirilayotgan dalaning suv iste'moli* (YE) ekinlarning bargidan, tanasidan (transpiratsiya, Yetr) va tuproq yuzasidan (Yet) bug'lantirilgan suvlarning miqdoriga tengdir:

$$YE = \text{Yetr} + \text{Yet} \quad \text{mm, m}^3/\text{ga}$$

Tuproq yuzasidan bug'lanishga asosan tashqi muxit ta'sir etsa, transpiratsiyaga tashqi muxit bilan mujassamlashgan o'simlikning ichki omillari ta'sir etadi. Shuning uchun ularni ajratib olish murakkabligidan, **Yetr** va **Yet** birligida, bir butun qilib aniqlanadi.

**Suv iste'moli** -iqlim, gidrogeologik va xo'jalik sharoitlari, o'simlikning biologik xususiyatlari, hosildorligi va sug'orish usullariga bog'liqdir.



# Qishloq xo'jaligi ekinlarining suv iste'moli

**Suv iste'moli aniqlashning usullari:** *to'g'ridan-to'g'ri dalada o'lchash, analog (o'xhash) va empirik-hisobiy.*

**To'g'ridan-to'g'ri dalada aniqlash:** tajriba dalasining yoki tuproq monolitining suv (muvozanati) balansi elementlarini o'lchash orqali ularning umumiy suv iste'molini aniqlashdan iboratdir.

$$E = \mu \cdot P + \Delta W + M \pm W_{cc}, \quad \text{m}^3/\text{ga}.$$

**Analog (o'xhash):** ilgari yaxshi o'r ganilgan tabiiy sharoitlari o'xhash bo'lgan obyektlar orqali umumiy suv iste'molini aniqlashdan iboratdir.

**Empirik-hisobiy usul** suv iste'moli bilan iqlim omillari orasidagi korrelyatsiya bog'liqliklariga asoslangandir.

**Empirik-hisobiy usulda** empirik koeffitsiyentlar bevosita kuzatuvlar natijasida aniqlanganligi uchun bu usul aniqroq usul hisoblanadi. Shunday aniqlash formulalaridan biri A. N. Kostyakov formulasidir:

$$E = K \cdot Y, \quad \text{m}^3/\text{ga},$$

**bu yerda:** E – suv iste'moli,  $\text{m}^3/\text{ga}$ ;

K – suv iste'moli koeffitsiyenti,  $\text{m}^3/\text{t}$ ;

Y – loyihaviy hosildorlik,  $\text{t}/\text{ga}$ .

# Qishloq xo‘jaligi ekinlarining suv iste’moli

## Bioqlimiy hisoblar.

**A.M. va S.M. Alpatyevlar formulasi :**

$$E = K \delta \Sigma d, \text{ m}^3/\text{ga},$$

Bu yerda:  $K$  – biologik koeffitsiyent (hisobiy davrdagi umumiy bug‘lanishning havo namligi tanqisligi yig‘indisiga nisbati bo‘lib, tajribalar orqali aniqlanadi), mm/m<sup>3</sup>;  $\Sigma d$  – havoning o‘rtacha ko‘p yillik namlik tanqisligi yig‘indisi, mb.

**N.N.Ivanovning formulasi:**

$$E_0 = 0,0018 \cdot (25 + t)2 \cdot (100 - a),$$

Bu yerda:  $E_0$  – oylik umumiy bug‘lanishi, mm;  
 $t$  – havoning o‘rtacha kunlik temperaturasi, °C;  
 $a$  – havoning o‘rtacha kunlik namligi, %.

**F. Bleyni va V.D. Kriddl (AQSH) formulasi:**

$$ET_0 = n \cdot (0,46t + 8,13)k\sigma,$$

Bu yerda:  $ET_0$  - potensial evapotranspiratsiya, mm/sut;  
 $n$  - sutkadagi yorug‘ vaqtning o‘rtacha davomiyligi, yillikdan % hisobida;  
 $t$  - havoning temperaturasi, °C;  
 $k\sigma$  - havoning namligi, quyosh yorug‘ligining davomiyligi va shamol tezligini inobatga oluvchi koeffitsiyent.

# ***Qishloq xo‘jaligi ekinlarining suv iste’moli***

*Suv muvozanati (balansi) usulining ko‘rinishlari: bug‘latgich va lizimetrlardir.*

**Bug‘latgichlar** - yuzasi 0,05-0,30 m<sup>2</sup>, balandligi 1-1,5 m bo‘lgan, osti va yon devorlari suv o‘tkazmaydigan silindrsimon idish ko‘rinishida bo‘lib, idishga tuproq monoliti o‘rnatiladi. Ular sug‘orish maydonida sizot suvlar chuqurligi 5-10 m da bo‘lganda, ya’ni suvlarning tik yo‘nalish bo‘yicha almashinushi bo‘lmaganda qo‘llaniladi.

**Lizimetrlar** - tuproq monolitida tik suv almashinuvini hisobga olishga asoslangan bo‘lib, bu idishlarning yuzasi 0,10-0,20 m<sup>2</sup> dan (don ekinlari uchun) 1,0 m<sup>2</sup> gacha (g‘o‘zada), balandigi 1-2,5 m gacha bo‘ladi. Lizimetrlarda sizot suvlar sathi doimiy ravishda ushlab turiladi.

## ***Qishloq xo‘jaligi ekinlarining o‘rtacha suv istemoli :***

Don ekinlarida - 3000–4000 m<sup>3</sup>/ga,

Sholida - 12000 m<sup>3</sup>/ga,

Poliz ekinlarida - 3000-10000 m<sup>3</sup>/ga,


Ko‘p yillik o‘tlarda- 8000–12000 m<sup>3</sup>/ga,

G‘ozda - 6000-9000 m<sup>3</sup>/ga.



# Qishloq xo‘jaligi ekinlarining sug‘orish rejimi

**Sug‘orish rejimi** – sug‘oriladigan maydonlarning tabiiy va xo‘jalik sharoitlarini hamda o‘simlikning biologik xususiyatlarini inobatga olgan holda belgilanadigan sug‘orish meyorlari, muddatlari va sonlarining jamlanmasidir.



## O‘simlik rivojlanishining maqbul sharoitlari:

**havo namligi** - 40-50%,  
**havo harorati** - 14-22 oS,  
**tuproq ildiz qatlamdagi namlik** - (0,6-0,8)TNS,  
**xlor va natriyning tuzlarini bo‘lmasi**.

# **Qishloq xo‘jaligi ekinlarining sug‘orish rejimi**

*Qishloq xo‘jaligi ekinlarining sug‘orishrejimiga ta’sir e tuvchi omillar :*

- **Iqlim sharoiti:** havo harorati, yog‘in miqdori va uning yil oylari bo‘yicha taqsimlanishi; havo namligi va bug‘lanishi; shamolning kuchi, yo‘nalishi va takroriyligi.
- **Tuproq sharoiti:** tuproqning mexanik tarkibi, suv–fizik xossalari, sho‘rlanish darajasi va turi.
- **Gidrogeologik sharoitlar:** yer osti suvlarining satxi, minerallashganligi va ularning o‘zgarishi.
- **Iqtisodiy–xo‘jalik sharoitlari:** tuproq unumdorligi, agrotexnika ekinning hosildorligi.
- **Qishloq xo‘jaligi ekinlarining turi:** g‘o‘za, kuzgi bug‘doy, sabzavot ekinlari, bog‘, uzumzorlar va b.
- **Qishloq xo‘jaligi ekinlarining biologik xususiyatlari:** o‘simliklarning navlari, suvga, tuzga va issiqlikka munosabati.
- **Sug‘orish usuli va texnikasi:** yer ustidan, tomchilatib, yomg‘irlatib va b. usullar va texnikalar.

# ***Qishloq xo'jaligi ekinlarining sug'orish rejimi***

***Mavsumiy sug'orish meyori*** - Tuproqning hisobiy qatlami dagi namlikni boshqarish uchun vegetatsiya davrida 1 ga sug'orish maydoniga beriladigan suv hajmidir ( $m^3/ga$ ) .

***Tuproqning hisobiy qatlami*** o'simlik ildizlarining asosiy qismi (90% gacha) joylashgan qatlami bo'lib, o'simliklar turiga qarab, 0,4-1,0 m. ga teng bo'ladi.

***Mavsumiy sug'orish meyori*** akad. A. N. Kostyakov tavsiya etgan suv muvozanati tenglamasi yordamida aniqlanadi:

$$M = E - (\mu \cdot P + \Delta W \pm W_{cc}),$$

Bu yerda: **M - mavsumiy sug'orish meyori, netto,  $m^3/ga$ ;**

**E - umumiy suv iste'moli,  $m^3/ga$ ;**

**P - atmosfera yog'ini, MM;**

**$\Delta W$  - tuproq namligidan foydalanish,  $m^3/ga$ ;**

**$\pm W_{cc}$  - aeratsiya zonasi va sizot suvlari orasidagi namlik almashinushi,  $m^3/ga$ ;**

**$\mu$  - atmosfera yog'inidan foydalanish koeffitsiyenti, (0,3-0,6).**

## ***Qishloq xo‘jaligi ekinlarining sug‘orish rejimi***

*Sug‘orish meyori deb, qishloq xo‘jaligi ekinlarini bir marotaba sug‘orish uchun 1 ga sug‘orish maydoniga beriladigan suv hajmi ( $m^3/ga$ ) ga aytiladi.*

$$m = H_{his.} * \beta * (W_{max} - W_{min}), m^3/ga$$

**Bu yerda:** *Hhis. - tuproqning hisobiy qatlami, см.*

*$\beta$  - tuproqning hisobiy qatlamini xajmiy og‘irligi, т/  $m^3$*

*$W_{max}$  - sug‘orishdan keyingi tuproq namligi, %*

*$W_{min}$  - sug‘orishdan oldingi tuproq namligi, %*

***Mavsumiy sug‘orish meyorining qiymatlari:***

g’oza ekini- 5000-9000  $m^3/ga$ ;

g’alla - 1000-5000  $m^3/ga$ ;

ko’p yillik o’tlar- 2000-10000  $m^3/ga$ ;

poliz - 2000-8000  $m^3/ga$ ;

makkajo’hori - 2000-5000  $m^3/ga$ ;

bog’ va uzum- 1500-7000  $m^3/ga$ .

***Sug‘orish meyorining qiymatlari :***

***tomchilatib sug‘orishda  $m= (100-300) m^3/ga$ .***

***yomg‘irlatib sug‘orishda  $m \leq 600 m^3/ga$ .***

***yer ustidan sug‘orishda  $m= (600-1500) m^3/ga$ .***

## **Qishloq xo‘jaligi ekinlarining sug‘orish rejimi**

***Qishloq xo‘jaligi ekinlarining sug‘orish rejimini aniqlash uslublari:***

***Ekspluatatsion sug‘orish rejimi uchun - ilmiy-tadqiqot muassasalari tavsiyasiga binoan (PSUYEAITI), ilg‘or xo‘jaliklar tajribalari va dala kuzatuvlari asosida.***

***Loyixaviy sug‘orish rejimi uchun - A.N.Kostyakovning grafoanalitik uslubida hisoblashlar asosida.***

***Grafoanalitik uslubning moxiyati** - xisobiy davr (dekadalar, oylar)da hisobiy qatlamdagи namlik balansini taxliliga asoslanadi. Balansdan xisobiy davr oxiridagi hisobiy qatlamdagи namlik zaxirasi aniqlanib, yo‘l qo‘yiladigan chegara bilan solishtiriladi.*


$$W_{oxir} = W_{bosh} + \mu P - E \pm W_{ss}$$

Namlik zaxirasi  $W_{min}$  gacha kamaysa, sug‘orish belgilanadi. Sug‘orish kuni va meyori grafik usulda aniqlanadi.

Namlikni % dan  $m^3/ga$  o’tkazish:  $W(m^3/ga) = W(\%) \cdot H_{his} \cdot \beta$

## ***Qishloq xo‘jaligi ekinlarining sug‘orish rejimi***

# A.N.Kostyakovning grafoanalitik uslubii



# *Tuproqning nam sig‘imlari*

*Tuproqning nam sig‘imi* - tuproqning suvni ushlab turish qobiliyatidir. Tuproqning suv bilan to‘yinish darajasiga va suvning o‘simlik faoliyati uchun yetarligiga qarab quyidagi *nam sig‘imlariga farqlanadi*:

- a) *to‘la nam sig‘imi (TNS);*
- b) *kapillyar nam sig‘imi (KNS);*
- c) *chegaraviy dala nam sig‘imi (CHDNS);*
- d) *maksimal molekulyar nam sig‘imi (MMNS).*

## Tuproqning nam sig‘imlari

*Tuproqning to‘la nam sig‘imi*—tuproqning barcha g‘ovakliklari (bo‘shliqlari) suv bilan to‘lgan xolatidagi suv miqdoridir.

*Tuproqning kapillyar nam sig‘imi*—tuproq bilan sizot suvlari o‘rtasida kapillyar aloqa bo‘lgan xolatda, tuproq ushlab tura oladigan suv miqdoridir.

*Tuproqning chegaraviy dala nam sig‘imi*—tuproqning gravitatsiya suvlari oqib tushgan va sizot suvlaridan kapillyar to‘yinish yo‘q xolatdagi eng ko‘p ushlab turiladigan suv miqdoridir.

*Tuproqning maksimal–moleklyar nam sig‘imi* - o‘simlik so‘lishi boshlanadigan eng kam chegaraviy kritik namligidir.

*Gravitatsion suv*—TNS va CHDNS orasidagi farqga teng bo‘lib, tuproq qatlamida harakatlanadi va sizot suvlarini suv bilan ta’minlaydi.

# Qishloq xo‘jaligi ekinlarining sug‘orish rejimi

Tuproq namligining yo‘l  
ko‘yiladigan minimal qiymatlari

Ekin turi	SHo‘rlanmagan tuproqlar		Kam sho‘rlangan tuproqlar	
	Og;’r	engil	Og’ir	engil
G‘o‘za va ko‘p yillik o‘tlar	70-75	65-70	75-80	70-75
Don ekinlari	65-70	60-65	70-75	65-70
Makkajo‘xori	65-70	60-65	75-80	70-75
Meva va rezavor ekinlar	70-80	60-70	75-85	70-75

O‘simlikning sizot suvlaridan  
iste’moli suv miqdori

Sizot suvlarining sathi	Foydalilaniladigan sizot suvlar, m3/ga xisobida	
	chuchuk	kam sho‘rlangan
1,0	3000	1200
1,5	1500	800
2,0	900	400
2,5	500	100

# Qishloq xo‘jaligi ekinlarining sug‘orish rejimi

## *Hisobiy qatlam ( Nxis) ning taxminiy qiymatlari, m*

<i>Ekin turlari</i>	<i>Rivojlanish davri</i>	<i>Hisobiy katlam, m</i>
<b>G‘o‘za</b>	shonalash	0,5-0,6
	gullah	0,75-0,85
	yetilish	0,5-0,6
<b>Ko‘p yillik o‘tlar</b>	tuplanish	0,45-0,55
	shonalash yoki gullah oldidan:	
	birinchi yilda	0,5-0,6
	keyingi yillarda	0,75-0,85
<b>Donli ekinlar</b>	o‘rilgach	0,75-0,85
	tuplanish	0,3-0,5
	naychalash	0,6-0,7
<b>Qand lavlagi</b>	ildiz otish	0,2-0,3
	barg yozishi	0,4-0,5
	ildiz meva hosil qilishi	0,6-0,7
<b>Tamaki</b>	Ildiz otish	0,2-0,3
	Barg yozish	0,4-0,6
<b>Bog‘ va tokzorlar</b>		0,75-1,0

## Mavzu bo'yicha nazorat savollari

- *Suv iste'moli nima?*
- *Suv iste'moli nimalarga bog'liq:*
- *Suv iste'moli qanday usullar yordamida aniqlanadi?*
- *Suv muvozanati balansini aniqlashning qanday ko'rinishlari mavjud?*
- *Sug'orish rejimi nima?*
- *Sug'orish rejimi qanday omillar asosida belgilab olinadi?*
- *Sug'orish meyori nima?*
- *Mavsumiy sug'orish meyori nima?*
- *Sug'orish rejimini aniqlash uslublarini tushuntiring?*
- *Tuproqning nam sig'imi nima?*
- *Tuproqning to'la nam sig'imi nima?*
- *Tuproqning kapillyar nam sig'imi nima?*
- *Tuproqning chegaraviy dala nam nima?*
- *Tuproqning maksimal molekulyar sig'imi nima?*



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ  
XO'JALIGINI MEXANIZATSİYALASH  
MUHANDISLARI INSTITUTI



## E'TIBORINGIZ UCHUN RAXMAT!



Isayev Sabirjan  
Xusanbayevich



Irrigatsiya va melioratsiya  
kafedrasi professori



+ 998 71 237 19 56



[s.isaev@tiiame.uz](mailto:s.isaev@tiiame.uz)



@sabirjanisaev